



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI KAFEDRASI**

*“Profilaktik tibbiyotning dolzarb muammolari va yechish yo‘llari”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

*Республиканская научно-практическая конференция на тему
«Актуальные проблемы профилактической медицины и пути их
решения»*



Toshkent – 2025

1 I-guruh bemorlarda 5,88 marta oshgan bo‘lsa 2- guruh bemorlarda 2,91 marta ko‘tarilganligi aniqlandi. Instrumental tadqiqot usullarini o‘tkazishda: buyraklarning ultratovush tekshiruvi bemorlarning 76,3% da buyrak tos bo‘shlig‘ining deformatsiyasini, 18% da buyrak hajmining assimetriyasini va 43,9% hollarda parenximaning siqilishini aniqladi. Ekskretor urografiya da buyrak tos bo‘shlig‘ining deformatsiyasi 11 bemorda - 91,3% da aniqlangan.

Xulosa. Buyrak shikastlanishi 1 molekulasining siydik bilan chiqarilishini aniqlash buyrak parenximasining gipoksik, toksik yoki mikrobial shikastlanishini erta aniqlashning arzon va invaziv bo‘lmagan usuli bo‘lib, differentsial diagnostika sifatini oshiradi va siydik tizimining mikrobial yallig‘lanish kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni erta aniqlash imkonini beradi.

SURXONDARYO VILOYATI TERMEZ TUMANI AHOLI TURAR- JOY BINOLARIDA RADON MIQDORINI ANIQLASH

*Salomova F.I. TTA Atrof muhit gigiyenasi kafedrası mudiri, t.f.d.,
professor*

*Turabaeva Z.K. TTA Termiz filiali Mikrobiologiya, jamoat salomatligi,
gigiyena va menejment kafedrası dotsenti, PhD*

Dolzarbliđi. Hozirgi vaqtda dunyoda hududning radon xavfini aniqlashning universal usuli mavjud emas. Radon tabiiy ravishda uchraydigan, rangsiz, hidsiz radioaktiv gaz bo‘lib, yarim parchalanish davri 3,8 kun. Radon parchalanish mahsulotlarining o‘zi radioaktiv bo‘lib, nafas olayotganda o‘pkaning nurlanishiga olib keladi. Uyda va ishda (ya‘ni, tog‘-koň ishchilari) radonga duchor bo‘lgan odamlarning epidemiologik tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, ta’sirning ortishi bilan xavf ortib boradi, chekish esa kuchli sinergik ta’sirga ega. Ushbu sinergik ta’sir tufayli radon bilan bog‘liq o‘pka saratoni o‘limining aksariyati chekuvchilar yoki sobiq chekuvchilarda sodir bo‘ladi. Biroq, radon hech qachon chekmagan odamlarda ham o‘pka saratoni uchun eng muhim xavf omili hisoblanadi. Turar-joy binolari

havosidagi radonning HF (hajm faolligi) o‘lchovlarini qamrab olish bo‘yicha eng ko‘p o‘rganilgan mamlakatlar qatoriga Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Chexiya, Finlyandiya, Irlandiya va boshqa Evropa mamlakatlari, AQSh, Kanada va boshqalar kiradi.

Tadqiqot maqsadi: Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi turar-joy binolaridagi radon miqdorini baholash va aholining radiatsion xavfsizligini ta’minlashning asosiy mezonlarini asoslash.

Materiallar va tadqiqot usullari. Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi turar-joy binolarida FTLAB FRD400 radon o‘lchagich yordamida o‘lchovlar sovuq va issiq davrlarda amalga oshirildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Surxondaryo viloyati Termiz tumanida o‘tkazilgan o‘lchovlarga ko‘ra, sovuq davrda turar-joy binolari havosidagi radon izotoplari va ularning parchalanish mahsulotlarining EMHF (ekvivalent muvozanat hajm faolligi) qiymatlari 7-21 Bk/m³, yilning issiq davrida esa: 18-78 Bk/m³.

Xulosa. Shuni ta’kidlash kerakki, Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi turar-joy binolar havosidagi radon izotoplarining EMHF ni o‘lchashda eng yuqori ko‘rsatkichlar oshxonada aniqlangan (bu oshxonada tabiiy gazdan foydalanish bilan izohlanadi va shunga mos ravishda radon darajasini oshiradi). Yilning issiq davrida radon miqdori biroz yuqoriroq ekanligi ham qayd etildi, bu esa havo haroratining yuqoriligi bilan izohlanadi. Anomal radon darajasi aniqlanmadi.

Rashidov V.A., Axmedov F.A.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA GIMENOLEPIDOZ BILAN
KASALLANGANLARNING EPIDEMIOLOGIK TAHLILI** 63

Rasulov Sh.M.

**KASALXONA ICHI OIV-INFEKSIYASINING
EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA RETROSPEKTIV
EPIDEMIOLOGIK TAHLILI** 65

Rasulov Sh.M., Rasulova K.M.

**KORONAVIRUS INFEKSIYASINING TARQALGANLIGI,
TASHQI MUXITGA CHIDAMLILIGI VA OLDINI OLISH
CHORA-TADBIRLARI** 67

Rasulov Sh.M., Muxidinova G.A.

**SURUNKALI PIYELONEFRITNI TURLI SHAKILLARI BILAN
KASALLANGAN BOLALARDA NOGIRONLIKNI
PROFILAKTIKASIDA NOINVAZIV ZAMONAVIY
BIOMARKERLARNING AHAMIYATI** 70

Rahmatova M.A., Gapparova G.N.

**SURXONDARYO VILOYATI TERMEZ TUMANI AHOLI
TURAR-JOY BINOLARIDA RADON MIQDORINI ANIQLASH** 72

Salomova F.I., Turabaeva Z.K.

**QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI CHETLASHTIRISH
TIZIMINI GIGIYENIK BAHOLASH** 74

Safarov M.B., Jiyanbekova H.B.

SUT ISHLAB CHIQUARISHDA GIGIYENIK TALABLAR 75

Saitmuratov M.A., Abdurahmonova M.Sh.

**O‘SIMLIK HOMASHYOSIDAN DORI VOSITALARI ISHLAB
CHIQUARISHDA ISHLOVCHILARNI MEHNAT SHAROITLARI
SINFINI ANIQLASH** 77

Tashpulatova M.N., Xolmamatova D.I.

**YUQUMLI VA YUQUMLI BO‘LMAGAN KASALLIKLARNING
EPIDEMIOLOGIYASI VA PROFILAKTIKASI** 79

Tajibayeva M.R., Faridova D.R.

**OVQATDAN ZAHARLANISH MUAMMOLARINI BARTARAF
ETISH** 82

Tajibaeva M.R., Abdullayeva A.R.

**PROFILAKTIK TIBBIYOTNING ZAMONAVIY
MUAMMOLARI** 86

Toshtemirov Sh.Sh., Kudiyarov I.A.

**SIL KASALLIGI BILAN KASALLANGANLARNING
DISPANSER NAZORATI VA PROFILAKTIKASI** 88

Toshpo‘latov A.Y.

**YURAK ISHEMIK KASALLIGI-ZAMONAVIY
TIBBIYOTNING AKTUAL MUAMMOSI** 91